



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



ORIFXON HOTAMOV IJRO MAKTABINING ‘O‘ZBEK MILLIY MAQOM- ASHULACHILIK’ SAN‘ATIDA TUTGAN O‘RNI, O‘ZIGA XOS USLUBI, IJRO YO‘LLARINI TALABA-O‘QUVCHILAR ONGIDA SHAKLLANTIRISH.

Mirkomilov Xayotbek Mamasidik o‘g‘li.

*Farg‘ona ixtisoslashtirilgan maqom-maktabi internati
‘An‘anaviy honandalik’ sinfi o‘qituvchisi.*

Hayoti va ijod yo‘li

Orifxon Hotamov 1925-yil Jizzaxda viloyatida tavallud topdi— xonanda, sozanda (tanbur, g‘ijjak), mukammal ijrochisi va bastakor sifatida tan olinadi.

Milliy mumtoz musiqamiz (maqom, ashula, katta ashula, bastakorlik) san‘atining yirik vakilidir.

1954-yilda Toshkent musiqa bilim yurtini g‘ijjak ixtisosligi bo‘yicha tugatgan.

Hofizlik va tanbur chalish yo‘llarini ustoz J.Sultonovdan o‘zlashtirgan.

Dastlab ijodini 1944-yilda, Muqimiy teatri O‘zbek davlat filarmoniyasida, So‘ngra O‘zbek radiosining xalq cholg‘ulari orkestri etnografik ansamblida davom ettirdi.

1959-1976 „Maqom“ ansamblida sozanda, 1989-1999-yillarda M.Uyg‘ur nomidagi San‘at instituti pedagogik faoliyatini amalga oshirdi.

1993-yilda O‘zbekiston xalq hofizi unvoniga sazovor bo‘ldi.

1997-yilda "Do‘stlik" ordeni bilan mukofotlangan

1999-2002 yilga qadar Toshkent konservatoriyasi pedagog sifatida ish olib bordi

Ijodiy asarlari O.Hotamov kuchli, ko‘lami keng, shirador va dardli ovoz sohibidir. Xofizning o‘ziga xos ijro va ijodiy uslubi nozik did, teran mazmundorligi bilan ajralib turadi. Ko‘p yillar davomida Hakimjon Fayziyev, keyinchalik o‘g‘illari Axrorxon va Ismoilxonlar bilan hamnafaslik qilib, ovozlar ravonligi va mutanosibligi, tanbur-dutorning dilkash muloqotiga asoslangan jo‘rovoz yo‘lida ijod qilgan. Ijrolari va bastakorlik asarlari O‘ztele-radio-kompaniyasi fonotekasiga, bir necha gramplastinka va kompakt disklarga yozilgan.

Orifxon Hotamov repertuaridan katta ashulalar "Ohkim" "Daydi Tanavor", "Bo‘lmish" va boshqalar o‘rin olgan

Mumtoz ashula yo‘lida bastalagan asrlari "Feruz", "Abdurahmonbegi", "Hanuz", "Qo‘shchinar", "Suvora" va ko‘plab asarlarni sanash mumkin.

Maqom yo‘llarida qilgan ijodi esa taqsiinga sazovordir bulardan "Dugoh Husayn" "Bayot" kabi XX asrning yirik bastakorlari

"Sodirxon Ushshog‘i“ Sobir Bobosharipov

"Ul kun jonon", J.Sultonov;

"Dog‘man", K.Otaniyozov va ko‘plab ijod namunalari o‘rin olgan.

O‘zbek mumtoz va zamonaviy shoirlar g‘azallariga o‘zi bastalagan:

Mumtoz shoirlardan



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Navoiy g'azallariga "Qoshi yosinmu deyin" "Qora bo'libdur" Lutfiy g'azallariga "Sensan sevarim" Firoqingizdin

Zamonaviy shoirlar she'r va g'azallariga

S.Zunnunova "Yor o'tdimu", "Holimni so'rmaysan"

Sadoiy; "Ohista-ohista",

T.To'la; "Subhidam",

P.Mo'min; "Vatandir", "Paydo bo'libdur"

Chustiy g'azallariga "Naylayin" va boshqa nodir asarlari o'rin olgan.

Orifxon Hotamov ijro maktabida eng e'tibor berishimiz mumkin bo'lgan bir ayni sifatlarni sanab o'tsak

1-Ashula ijrosi va cholg'u jo'rligidagi yozgan asarlaridan ya'ni mukammal tarzda g'azalga, she'rga bastalan musiqadir. Musiqasi huddi hofizning yuragidan chiqayotgan dard, ohang, nolalari eshituvchini beixtiyor jumbushga keltiradi. Hofiz boshlagan ashulasining birinchi baytining birinchi g'azal bo'g'inidayoq o'z eshituvchisini o'ziga qarata oladi va his hayajon bilan eshitishga undaydi.

Orifxon Xotamovning yuragidan chiqayotgan bu dardli ohangga lol qolmaslikning iloji yo'q. Eng birinchi o'rinda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish qoidalariga rioya qilingan bo'lib. Har bir so'zning har bir harfi fonetik hodisalarga to'g'ri tayanilgan bo'lib ya'ni bu harflarni to'g'ri talaffuz qilish natijasida hozirgi kundagi honandalik sinfi o'quvchilarimiz va talabalarimizda ustozni misol keltirib eshittirgan holda asoslab bergan holda har bir g'azal matnidagi so'zlarni ma'nolarini izohlab berish va ichki tuyg'u o'zimizni til bilan aytgan da yurak qo'shib ayt deymizku o'quvchilarimizga xuddi shu ko'nikma haqida tushuncha berishimiz mumkin albatta

O'quvchilar ongida shakllantirish maqsadi

Orifxon Xotamov ijro uslubidagi Grammatik jihat ya'ni muqum qolipga solingan ko'p ortiqcha nola qochirimlarsiz ijro qilish, masalan butun bir boshli ashula qismidan bir joyida nari borsa ikki joyida eshituvchiga ma'qul va yengil keladigan nolalarni qilib otish qobiliyatini ko'rishimiz mumkin.

Hofizning nim pardalardan ustomonlik bilan foydalangani barchamizni hayratga solishi turgan gap albatta soddadil va erkinlik ijrosini hozirgi kundagi xonandalarimizga tushuntirishimiz mumkin.

Ya'ni hozirgi kundagi xonandalarimiz ashulani avj qismiga yaqinlashgani sari sir bosib diyiladi bizning tilimizda hayajonlanib ichki kechinmalarida hozir ovozim yetmay qolishi mumkin unda nima qilaman degan fikrni ilgari surishadi.

Ustozdagi ijro mahorati eng avvalo xotirjamlik bog'liq bo'lib asarning ajv qismlarda ham daromad qismlarda ovozning tembri baland jaranggi birdek yangraydi. Inson ruhiyati shunday bir noyob durdonaki har bir yaxshi yomon holatlar turtki bo'lishini mumkin. O'quvchilarimiz ruhiyatiga eng zavq qo'shadigan omil ya'ni maqom konsertlarda yoki bir tanlovlarda tadbirlarda birgina zalda o'tirib (ha yasha, barakalla) digan ruhiy quvvatimiz ijrochiga yanayam kuch bag'ishlashi mumkin.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Ustozga ehtirom

Orifxon Hotamov 2002-yil sentyabr oyida Toshkentda vafot etdilar.

Oradan uzoq vaqt o'tgan bo'lishiga qaramay uztoz xotirasini yod etish va abadiylashtirish maqsadida Madaniyat vazirligi farmoniga binoan Jizzax viloyati hokimligi hamkorlik da

2022-yil 25-26 noyabr kunlari O'zbekiston xalq hofizi Orifxon Hotamov nomidagi maqom san'ati va mumtoz qo'shiqchilik respublika ko'rik tanlovi o'tkazildi.

Tanlovda respublikamizning har har bir viloyatlaridan 600 nafardan ortiq tanlov ishtirokchilari kelib faol ishtirok etdilar va faxrli o'rinlar va qimmatbaho sovg'alar sohibi bo'ldilar.

Biz yosh avlod tarixda ijod qilib o'tgan ustozlar o'lmas asarlarini kelajak avlodga meros qilib yetkazib o'rgatib kelar ekanmiz o'ylaymanki bu madaniy musiqiy merosimiz hali yuz yillar davomida kelajak avlod musiqa san'ati ihlosmandlariga tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa:

O'z zamonasining zarbardast hofizi Orifxon Hotamov o'zbek milliy-musiqa san'atida o'ziga xos ijro maktabini yarata oldi. Hofizning tanbur jo'rligida yaratgan ashulalari har-bir ko'ngulga birdek kirib borib ko'ngullarni zabt eta oldi. Orifxon Hotamov yaratgan ijro maktabi so'zlarini ravonligi, musiqasining ohangdorligi hamda har-bir she'riy jummalarni aniq-tiniq talaffuzi va yurakdan his qilib aytishi bilan barchaga birdek ma'qul bo'ldi. Hofizning bu yangi ijro maktabini yosh o'quvchi va talabalarga targ'ib qilish asnosida shuni aytish joizki. So'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va ovozni to'g'ri boshqara olish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Zeroki hozirgi kunda talaba-o'quvchilarimiz g'azallardagi mazmum-mohiyatni to'liq anglab yetishi va har-bir she'riy jumladagi shoirning ichki kechinmalari va mafkurasini ommaga tatbiq qilish, bu yuqorida keltirilgan g'azallar, she'rlardagi mazmun mohiyatni ochib bera olish ko'nikmasini shakllantirishdir.

